

**AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI
QO‘LLASH ASOSLARI E-FRONT TADBIQI**

Qodirov Azizbek,

assistent, Kokand university Andijon filiali, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada masofaviy ta’limda, e-Front ta’lim tizimi boshqaruvi xaqida ma’lumot berilgan. Masofaviy ta’limning samaradorligini ortirishda, e-Front ta’lim tizimi boshqaruvida axborot - kommunikatsiya texnologiya (AKT) larining imkoniyatlari xaqida muloxazalar yuritilgan. e-Front yordamida yaratilgan WAN tizimidagi masofaviy ta’limga oid U-learning saytini keltirilgan.

Kalit so'zlar: dasturiy ta'minot korxonalari, tahlil, raqamlashtirish, raqamli iqtisodiyot, dastur.

Annotatsiya: В Статье дано сведение о системе применения и управления образованием e-Front. Ведены размышления об увеличении возможности информационно - коммуникационных технологий с помощью системы e-Front. Приведено сайт созданный на e-Front в системе WAN, U-learning для дистанционного обучения.

Klyuchevye slova: software predpriyatiya, analiz, tsifrovizatsiya, tsifrovaya ekonomika, programma, industriya programmnoy obespecheniya.

Annotation: In the article was given information about the system of usage e-Front in managing the education and discussed possibilities of increasing information-communication technology by the help of e-Front system. Additionally was given the site to create on e-Front in the system WAN, U-learning for distance teaching.

Keywords: software enterprises, analysis, digitalization, digital economy, program.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to’g’risida” gi Qonuniga,

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 27 oktyabrdagi 289-son "Davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining malakasi va ko'nikmalarini oshirishga doir qo'shimcha chora - tadbirlar hamda ularni ishida kompyuter texnikasi va AKT laridan foydalanish yuzasidan attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida" gi Qaroriga muvofiq aholini kasbga yo'naltirish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlaridan foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir. Bu boradagi yaratib berilayotgan munosib shart - sharoitlar, imkoniyatlar sharofati o'laroq, tarixan qisqa vaqt mobaynida respublikamiz o'zining mustahkam AKT lari infratuzilmasi va jabhada malakali kadrlar tayyorlash tizimiga ega bo'ldi.

Yurtboshimizning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, mamlakatimizda internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 10 mln 200 ming kishidan ortiq miqdorni tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar aholining hayot tarzi yaxshilanishi bilan bir qatorda uning sifat ko'rsatkichlari ham yaxshilanib borayotganini bildiradi. Bu esa o'z navbatida hayotimizga keng ko'lamda qo'llaniladigan Internet va axborot texnologiyasining maqsadli kirib kelishini ta'minlash hisoblanadi. SHuningdek, masofali ta'lim turidan samarali foydalanish orqali aholi bilimining ortib borishiga katta e'tibor qaratiladi.

Metodologiya.

Masofaviy ta'lim - bu ta'limni modernizatsiyalashda borgan sari katta ahamiyat kasb etib borayotgan, o'qitishning mustaqil shakli hisoblanadi. Masofaviy ta'limning ko'plab turlicha usullari mavjud. Bular qatoriga bepul ta'lim olish e-Front onlayn - korporativ platformasi kiradi.


e-Front – bu ta'limni boshqaruv tizimi (LMS) yoki virtual o'qitish tizimi (VLE) sifatida ma'lum bo'lgan, ochiq berilgan kodli kurslarni boshqarish tizimi (CMS) hisoblanadi. Ishlashni ta'minlash uchun u veb-serverga yoki o'qituvchining shaxsiy kompyuteriga o'rnatilgan bo'lishi kerak. e-Front axborot ta'lim muhiti

resurslarini loyihalash, yaratish va keyinchalik boshqarish imkonini beradi. Avval tarafi shundaki, tizim interfeysi, undan dasturlash, ma'lumotlar ombori, veb-sayt va shu kabilardan foydalanish, sohasida chuqur bilimlarga ega bo'lmagan o'qituvchilar xam foydalana oladilar.

Muxokama.

Tizim qulay bo'lgan tushunarli interfeysga ega. Kursning deyarli barcha resurs va elementlarida kirish maydoni sifatida qulay WYSIWYG HTML redaktori qo'llaniladi hamda TeX yoki Algebra formatida formulalarni kiritish imkoniyati mavjud. O'qituvchi o'z hohishiga ko'ra kursni mavzular yoki sanalar bo'yicha tuzilmalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mavzular bo'yicha tuzilmalashda kurs mavzular bo'yicha seksiyalarga ajratiladi. Sanalar bo'yicha tuzilmalashda esa kursni o'rganishning har bir haftasi alohida seksiya sifatida shakllantiriladi. Bunday tuzilmalash masofaviy ta'limda qulaylik tug'diradi va o'quvchilarga o'zining o'quv ishlarini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi.

Fikrimizning isboti sifatida e-Front yordamida yaratilgan WAN tizimidagi U-learning saytini keltirsak. Ushbu sayt masofadan turib o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, unga 32ta o'quv kursi 64ta professor-o'qituvchilar tomonidan joylangan.



Taxlil.

Masofadan turib o'qishda asosiy nazorat turi testdan o'tkazish bo'lgani uchun, e-Front testlarni tekshirishni yengillashtiruvchi ko'plab funktsiyalarni namoyon qiladi. Jumladan, baholash shkalasini berish mumkin, o'quvchilar testdan

o'tib bo'lganlaridan keyin o'qituvchi tomonidan tuzatishlar kiritilganda, natijalarni qayta hisoblashning yarim avtomat mexanizmi mavjud. e-Front har bir o'quvchining topshirilgan ishlari, baholari va o'qituvchining bu ishlarga bergan sharhlarini, forumdagi xabarlarni saqlaydi. O'quvchilarning davomati, faolligini, ularning tarmoqdagi o'quv ishlari uchun sarflagan vaqtini nazorat qilish imkonini beradi. U foydalanuvchilar haqida: kim qanday materialni tarmoqdan olgani, qanday vazifalarni bajargani, testlar bo'yicha qanday natijalarga erishgani to'g'risida statistik ma'lumotlarni to'plashga erishadi. SHunday qilib, foydalanuvchilar qay darajada mavzuni o'zlashtirganliklarini bilib olish va shundan kelib chiqqan holda keyinchalik o'rganish uchun materiallarni taqdim etish mumkin.

Xulosa

SHunday qilib, e-Front ta'lim tizimi boshqaruvida AKT laridan samarali foydalanish va bu orqali mehnat bozorida raqobatbardosh, o'z kasbining mohir egasi, turdosh sohalarda ham faoliyat olib bora olishga yo'naltirilgan, mutaxassisligi bo'yicha jahon standartlari darajasida samarali ish olib borishga qodir, kasbiy mahoratini muntazam orttirib borishga, sotsial va kasbiy mobillikka tayyor, tegishli bilim darajasi va profiliga ega malakali mutaxassisni tayyorlash jarayonini tadqiq etishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
2. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston". 2017. – 488 b.
3. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – T.: "O'zbekiston". 2017. – 592 b.
4. *Data Protection Regulations and International Data Flows: Implications for Trade and Development*. UNCTAD/WEB/DTL/ STICT/ 2016/1/iPub. United Nations publication, Geneva.

5. Tilson D, Lyytinen K and Sørensen C (2010). Digital infrastructures: The missing IS research agenda – Research commentary. *Information Systems Research*, 21(4): 748–759.
6. Malecki EJ (2018). Entrepreneurship and entrepreneurial ecosystems. *Geography Compass*, 12(3). Wiley Online Library.